O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Navoiy davlat pedagogika instituti
rektori ________ prof. M.B.Kalonov
2024-yil "09" 09
Ro'yxatga olindi ORT 1206
2024-yil "09" 09

# "AMALIY O'ZBEK (RUS) TILI", "DAVLAT TILIDA ISH YURITISH" FANINING O'QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – Ta'lim |
| **Ta'lim sohasi:** | 110 000 – Ta'lim |
| **Ta'lim yo'nalishlari:** | Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun |

**Navoiy – 2024**

| **Fan/ modul kodi**<br>O'RT 1206 | **O'quv yili**<br>2024/2025 | **Semestr**<br>2 | **Kreditlar**<br>6 | **Ta'lim shakli**<br>kunduzgi |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/ modul turi**<br>Majburiy fan | **Ta'lim tili**<br>o'zbek | **Haftadagi dars soatlari**<br>6 soat | | |
| **Fanning nomi**<br>Amaliy o'zbek (rus) tili | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**<br>90 | **Mustaqil ta'lim (soat)**<br>90 | **Jami yuklama (soat)**<br>180 | |

**Fanning asosiy parametrlari**

**I.Fanning mazmuni**

**I.Fanning maqsadi** – talabalarning o'zbek tilida soha bo'yicha nutqiy kompetentligini oshirish; mutaxassislikka oid og'zaki va yozma nutqida sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish; sohada qo'llanadigan terminlar, asosiy tushunchalarni o'zlashttirish, o'zbek tilining fonetik, leksik, morfoligik, sintaktik qurilishiga doir ma'lumotlar bazasi bilan yaqindan tanishish, soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilish, davlat tilida ish yuritishga doir bilimlarini mustahkamlash, ish qog'ozlari bilan ishlashni o'rgatish. Talabalarning o'zbek tilidan og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish hamda savodxonlikni oshirish.

**I.Fanning asosiy vazifasi** – mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishni ta'minlash; egallanayotgan soha bo'yicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni o'zbek tilining yozma va og'zaki nutqi me'yor va qoidalari asosida mukammal o'zlashtirishga hamda ularga nisbatan shaxsiy munosabatni o'zbek tili adabiy me'yorlariga muvofiq holda ifodalashga erishishni ta'minlashdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy o'zbek tili fani orqali talabalar o'zbek tili imkoniyatlaridan keng foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Belgilangan mavzular va mustaqil ta'lim topshiriq mavzularini o'zlashtirish orqali o'zbek tilida ravon muloqot etish,



imloviy xatosiz yozish, gap tuzish va lug'atdan to'g'ri foydalanish malakasiga ega bo'ladilar. Davlat tilida ish yuritishga doir bilimlari mustahkamlanadi.

**Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etilgan mavzular**

1. Kirish. "Amaliy o'zbek tili". Davlat tilida ish yuritish fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Davlat tili tushunchasi. Til va tafakkur
3. Grafika.Yozuv haqida umumiy tushuncha
4. Fonetika. Nutq tovushlari tasnifi. Bo'g'in
5. Orfoepiya. Talaffuz me'yorlari. Urg'u
6. Orfografiya va imlo muammolari
7. Leksikologiya. O'zbek tilining leksik qatlamlari
8. So'z ma'nosi. Frazeologiya
9. Leksikografiya. Lug'at va uning turlari
10. Til va terminologiya
11. Morfemika. So'z yasalishi
12. Morfologiya. Fe'l so'z turkumi
13. Ot so'z turkumi
14. Sifat so'z turkumi
15. Son so'z turkumi
16. Olmosh so'z turkumi
17. Ravish so'z turkumi
18. Yordamchi so'z turkumlari
19. Alohida olingan so'zlar
20. Sintaksis. So'z birikmasi va gap
21. Punktuatsiya. Tinish belgilari va ularning uslubiy xususiyatlari
22. O'zbek tili nutq uslublari
23. Nutq va adabiy me'yor. Muloqot va uning turlari
24. Davlat tilida ish yuritish. Hujjatchilik tarixi
25. Hujjatlar matniga qo'yilgan talablar
26. Tashkiliy hujjatlar. Guvohnoma, yo'riqnoma, nizom-ustav
27. Tashkiliy hujjatlar. Shartnoma va mehnat bitimi
28. Farmoyish hujjatlari. Buyruq, buyruqdan ko'chirma, ko'rsatma, farmoyish
29. Ma'lumot-axborot hujjatlari. Ariza va undan namunalar yozish
30. Bayonnoma va bayonnomadan ko'chirma ish qog'ozi ustida ishlash
31. Bildirishnoma, vasiyatnoma va uning o'ziga xos xususiyatlari
32. Dalolatnoma, ishonchnoma, ma'lumotnoma va uning o'ziga xos xususiyatlari
33. Tavsifnoma, tavsiyanoma va ularning o'ziga xos xususiyatlari
34. Tarjimayi hol va uning o'ziga xos xususiyatlari

35. Tilxat, tushuntirish xati yozish qoidalari
36. E'lon, hisobot yozish qoidalari
37. Xizmat yozishmalari. Manzil haqida ma'lumot
38. Taklifnoma , telegramma va telefonagramma matni
39. Xatlar va ularning turlari. Axborot xati, talabnoma
40. Xatlar va ularning turlari. Da'vo xati, ilova xat, iltimos xat
41. Xatlar va ularning turlari. Kafolat xati, so'rov xati, tasdiq xat
42. Diplomatik yozishmalarni turlari
43. Tijorat yozishmalari
44. Hujjatlar ustida ishlash tartiboti
45. Ish qog'ozlari ustida ishlash

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar (mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular)**

**IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- Tarqatma materialar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish.
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- Yangi ilmiy adabiyotlarni, adabiy jarayon tendentsiyalarini va estetik tamoyillarni o'rganish.

Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

- Masofaviy (distantsion) ta'lim.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar (mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uyga berilgan topshiriqlarni bajarish
2. O'zbek tili fonetikasi haqidagi ma'lumotlarni to'plash va amaliy ish bajarish
3. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini o'rganish va amaliy ish bajarish
4. O'zbek tili leksikasiga doir nazariy ma'lumotlarni o'rganish va matnlar ustida ishlash
5. O'zbek tili morfemikasi va so'z yasalishiga doir ma'lmotlar bazasini yaratish va amaliy ish bajarish
6. O'zbek tili morfologiyasiga doir nazariy ma'lumotlarni to'plash va bilimlarni mustahkamlash



7. Sintaksis haqidagi umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish
8. Punktuatsiya.Tinish belgilariga doir amaliy ish bajarish
9. O'zbek tili nutq uslublarini amaliy mashqlarda o'rganish
10. Davlat tilida ish yuritish asoslariga doir ma'lumotlarni to'plash
11. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari
12. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari
13. Ma'lumot-axborot hujjatlari va ularning turlari
14. Xizmat yozishmalari va ularning turlari ustida ishlash
15. Hujjatlar ustida ishlash tartiboti
16. Ish qog'zolari ustida ishlash

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**
**Fanning o'qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar**

**Talaba bilishi kerak:**

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
- O'zbek tili imkoniyatlaridan amalda to'g'ri foydalanish kompetensiyasiga, o'zbek tilini sohada qo'llash bo'yicha tasavvur va bilimga ega bo'lishi;
- O'zbek tilida sohaga oid oid atamalarni tushunish, ularni mutaxassisligi mavzusidagi muloqotda mustaqil qo'llay olish jarayonlarining xususiyatlarini bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- O'zbek tiliga oid matnlar bilan o'zbek tilida tanishish, matn tuzish, uni tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, tizimli tahlil qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

**VI. Ta'lim texnologiyalar va metodlari**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:**

Talabalar bilimini baholar mezonlari talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan amaldagi baholash mezonlari asosida baholanadi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq, nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**Fanga oid asosiy darsliklar, o'quv uslubiy ma'lumotlar va internet jahon axborot tarmog'i resurslari**

| | Asosiy adabiyotlar |
|---|---|
| 1. | Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2006. |
| 2. | Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. |
| 3. | Husanov N.A. Xo'jaqulova R.Sh. Dilmurodova N.A. O'zbek tili. –Toshkent. 2020, 528 b. |
| 4. | Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. – Toshkent, 2005. |
| 5. | Rahmatullaev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –Toshkent, 2003. |
| 6. | O'zbek tilida ish yuritish. Mahmudov N., Madvaliyev A va boshqalar – Toshkent, 1990. |

| | Qo'shimcha adabiyotlar |
|---|---|
| 1. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5850 – son qarori. |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-40 son qarori |
| 3. | Hamroyev M va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. |
| 4. | O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008. |
| 5. | Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopidiyasi davlat nashriyoti,2002. |
| 6. | O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. Tuzuvchilar Tog'ayev T va boshqalar.–Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. |
| 7. | Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010 |

| | Axborot manbaalari |
|---|---|
| 1. | http://sahifa.tj/uzbeksko-russkij.aspx -Uzbeksko-russkiy perevodchik. |
| 2. | www.edu.uz |
| 3. | http://ziyonet.uz — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali |



Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024-yil ___ -__________dagi ___-sonli yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

**Fan/modul uchun mas'ul va namunaviy dastur muallifi:**

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n.
**Jumayev Z.H.**
(ismi, familiyasi) imzo

**Taqrizchilar:**
**M.Ravshanov** – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)
**Sadinova N** – Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

**Kafedra mudiri** (imzo) f.f.d. A.Xolmurodov (ismi, familiyasi)

№________ ______ ____________________